

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O'zbekiston IT-ekotizimiga ta'siri.....	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



РАЗВИТИЕ OPEN BANKING КАК ДРАЙВЕР ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	80
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр ўғли	
NAVIGATING TAX RISKS ARISING IN THE MANAGEMENT OF ENTERPRISES.....	83
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
DVIGATELNING TASHQI TEZLIK TAVSIFNOMASIGA DVIGATEL QUVVATI, TIRSAKLI VALINING MAKSIMAL AYLANISHLAR SONI, SOATLI YONILG'I SARFI VA SOLISHTIRMA YONILG'I SARFLARIGA TA'SIRI.....	86
Abdug'aniyev Shohruh Oxunjon o'g'li, Abdusattorov Nodirjon Abduljalil o'g'li	
FROM TRADITIONAL BANKING TO FINTECH ECOSYSTEMS: PERFORMANCE IMPLICATIONS	90
Rano Parpieva	
ZAMONAVIY SHAROITDA MEHNAT MOTIVATSIYASI NAZARIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INSONIY MUNOSABATLAR MAKTABINING AHAMIYATI	92
Aslanov Aziz Mexmonovich	
ВОДНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ КОМПРОМИСС В СИСТЕМЕ ЦУР УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕЖЦЕЛЕВЫХ КОНФЛИКТОВ	96
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
THE ECONOMIC IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TRADE AND ITS ROLE IN GLOBAL GROWTH	99
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
AHOLINING MOLIYAVIY FIRIBGARLIKKA ALDANISH EHTIMOLINI KAMAYTIRISHDA MOLIYAVIY TA'LIMNING O'RNI.....	102
Irgashev Anvar Farxodovich	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TASHQI SAVDONI OPTIMALLASHTIRISH VA ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	105
Nosirbekov Sanjarbek Toxirbekovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH	107
Turaboyev Ibroxim Ismoil o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	111
Xakimov Akbar Anvarovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY MAZMUN-MOHİYATI	114
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	117
Nomofov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARI RAQAMLI INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH	119
Hazratkulov Faxriyor Abdumuxammad o'g'li	
ОЦЕНКА ЛИДЕРСКОЙ ЗРЕЛОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	122
Абдусаламова Фароғат Сунатиллаевна	
STATE OF DEVELOPMENT AND DYNAMICS OF THE FRUIT PROCESSING INDUSTRY.....	125
Yusufova Laylo Gayrat kizi	
STARTAP LOYIHALARINING MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	132
Ko'chimova Madinabonu Qaxramon qizi, Sheraliyev Nurbek Jumanazar o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI SAMARADORLIGI VA BOZOR QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING KO'P FAKTORLI MODELLARI.....	135
Jumatova Gulzar Maxmud qizi	



INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURSLARINING SAMARADORLIGINI HISOBLASH USULLARI.....	139
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
INSTITUTIONAL FEATURES OF STATE REGULATION OF PRODUCT QUALITY MANAGEMENT	143
Atakulov Askad Raimkulovich	
TA'LIM MARKAZINING OBRO'SI VA RAQOBATBARDOSHLIGIGA MALAKALI XODIMLARNING TA'SIRINI BAHOLASH.....	146
Razzoqova Zebo Xusniddinova	
THE IMPACT OF RAPID TAX DISPUTE RESOLUTION SYSTEMS ON THE BUSINESS ENVIRONMENT AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT.....	149
Solihova Xumora Xasan kizi	
МОДЕЛИРОВАНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ ОБЩЕСТВА 5.0 НА УСТОЙЧИВОЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАН БРИКС-Т.....	153
Калдибаев Нурлан Алимжанович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNING INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIRI.....	156
Kurashev Sobir Saidmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI	159
Po'latova Mavluda Sanjar qizi	
ПРИЗНАКИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ И УПРАВЛЕНИЕ ИХ КАЧЕСТВОМ.....	162
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS.....	165
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli	
MADANIYLASHTIRILGAN GO'SHTNING QAYTA ISHLANGAN GO'SHT MAHSULOTLARI XOM ASHYOSIDA ISHTIROKI.....	168
Xaydarova Sitara Suranbay qizi	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	170
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI.....	173
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI, TURLARI VA XUSUSIYATLARI.....	175
Hakimova Nargiza Abduraimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TADBIQ QILISH YO'NALISHLARI VA INSTRUMENTLARI TAHLILI	180
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SUBJECTS ENGAGED IN MEAT PROCESSING IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DIRECTION.....	184
Sitara Khaydarova	
"XAVFSIZ SHAHAR" TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	188
Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA DAVLAT MOLIVASI STATISTIKASI: JORIY HOLAT VA ISTIQBOLLI REJALARI.....	190
Artikov Baxtiyor Maxkamovich	

O'ZBEKISTONDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA DAVLAT MOLİYASI STATISTIKASI: JORIY HOLAT VA ISTIQBOLLI REJALARI

Artikov Baxtiyor Maxkamovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-2188-5202

Email: bahtiyorartikov1981@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishning muhim omili hisoblangan davlat moliyasini boshqarish tizimini xalqaro standartlar hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining "Davlat moliyaviy statistikasi"ga muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy ishlar va natijalar sarhisob qilinib, istiqbolli yo'nalishlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro valyuta jamg'armasi, davlat moliyasini boshqarish, davlat moliyaviy statistikasi, davlat moliyasi, budjet ochiqligi.

Аннотация: В данной статье подведены итоги практической работы и достигнутых результатов, а также изложены перспективные направления дальнейшего развития по приведению системы управления государственными финансами Узбекистана в соответствие с международными стандартами, а также требованиям «Статистики государственных финансов» Международного валютного фонда, что является важным фактором внедрения бюджетирования ориентированного на результат в стране.

Ключевые слова: Международный валютный фонд, управление государственными финансами, статистика государственных финансов, государственные финансы, бюджетная открытость.

Abstract: This article summarizes the outcomes of the practical work carried out and the results achieved, and also outlines prospective directions for further development aimed at aligning Uzbekistan's public financial management system with international standards and the requirements of the International Monetary Fund's Government Finance Statistics framework, which is an important factor in the implementation of results-oriented budgeting in the country.

Keywords: International Monetary Fund, Public Finance, government finance statistics, public finance, budget transparency

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va davlat moliyasi tizimini xalqaro standartlar asosida qayta shakllantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlat moliyasini boshqarish tizimida ochiqlik, shaffoflik, samaradorlik va hisobdorlik tamoyillarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Bu jarayonda qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda budjet intizomini kuchaytirish, davlat mablag'laridan samarali foydalanish, fiskal xavflarni kamaytirish va aholining davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga erishiladi.

Aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda davlat moliyaviy statistikasini Xalqaro valyuta jamg'armasining "Davlat moliyaviy statistikasi qo'llanmasi" — GFSM-2014 talablari asosida tashkil etish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda davlat moliyasi sohasidagi tub burilishlardan biri — budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash va fuqarolar ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan siyosat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son qarori bu boradagi muhim huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida Davlat moliyaviy statistikasini yuritish va budjet ochiqligini ta'minlash bo'limi tashkil etildi.

Ushbu bo'limning tashkil etilishi davlat moliyasi statistikasini yuritish tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, budjet ma'lumotlarini aholi uchun ochiq va tushunarli shaklda taqdim etish, shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini milliy amaliyotga joriy qilishda muhim qadam bo'ldi.



Bu orqali davlat moliyasi sohasida xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish uchun mustahkam poydevor yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda budget xarajatlari ochiqqligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Fuqarolar uchun budget" nashrlari muntazam chop etilmoqda. Ushbu nashrlar orqali aholi davlat budgeti daromadlari va xarajatlari, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar, hududiy dasturlar hamda davlat investitsiya loyihalari haqida sodda va tushunarli ma'lumotlarga ega bo'lmoqda. Bu esa aholining budget jarayonidagi xabardorligini oshirish bilan birga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, "Ochiq budget" axborot portali faoliyati yo'lga qo'yilishi davlat moliyasi shaffofligini ta'minlashda mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur portal orqali budget tashkilotlarining xarajatlari ijrosi, budgetdan tashqari mablag'lar tushumi va sarfi, davlat xaridlari hamda tender jarayonlari haqidagi ma'lumotlar tuman va shaharlar kesimida jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Eng muhimi, mazkur tizim fuqarolarning budget jarayonida bevosita ishtirokini ta'minlab, tashabbusli budgetlashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy qildi.

Tashabbusli budgetlashtirish amaliyoti mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, aholining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish va mahalliy muammolarni aholi fikri asosida hal etishning samarali mexanizmiga aylandi. Bugungi kunda aholi tomonidan bildirilgan takliflar asosida minglab ijtimoiy loyihalar amalga oshirilishi davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligining oshirilishi bilan birga, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Davlat moliyasi tizimidagi muhim yangiliklardan yana biri — davlat budgeti hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarning muntazam e'lon qilib borilishidir. Bugungi kunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bo'yicha davlat dasturlari ijrosi haqidagi ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib bormoqda. Bu esa davlat investitsiya dasturlarining ochiqqligi va hisobdorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Shu bilan birga, davlat maqsadli jamg'armalari, hududiy budget tashkilotlari va boshqa budget mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan budget mablag'lari taqsimoti, davriy moliyaviy hisobotlar, subsidiya va kredit oluvchilar, kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar hamda davlat xaridlari bo'yicha ma'lumotlarning muntazam e'lon qilib borilishi davlat moliyasi tizimida ochiqqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy statistikasini xalqaro standartlar asosida yuritish borasida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Milliy umumlashtirilgan ma'lumotlar sahifasi" Xalqaro valyuta jamg'armasi rasmiy veb-saytida ochildi. Unda mamlakatimizning makroiqtisodiy va ijtimoiy statistik ko'rsatkichlari xalqaro hamjamiyat uchun e'lon qilib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiy siyosati ochiqqligi va xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat budgeti ijrosi bo'yicha yillik va choraklik hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq shaklda tayyorlash va e'lon qilish tizimi yo'lga qo'yilib, bu orqali davlat moliyaviy hisobotlarining xalqaro taqqoslanuvchanligi ta'minlanmoqda.

Davlat moliyaviy statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirishda GFSM-2014 qo'llanmasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qo'llanma asosida budget xarajatlarini tasniflash bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilib, 2019-yilda tasdiqlangani davlat moliyasi hisobini yuritishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur hujjat davlat moliyasi operatsiyalarini xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olish, tahlil qilish va taqdim etish imkonini yaratdi.

2025-yil fevral oyida Prezidentimiz tomonidan statistika tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qabul qilingan Farmon va qaror mamlakatimizda rasmiy statistika tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim siyosiy hujjatlar bo'ldi. Ularda xalqaro darajada tan olingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli, ishonchli va xolis statistik ma'lumotlarni shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Ayniqsa, davlat moliyasi statistikasini takomillashtirish sohasida 2025-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasining kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o'tish vazifasi belgilangani mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat bermoqda. Bilamizki, SDDS standartlariga o'tish mamlakat iqtisodiyoti haqidagi ma'lumotlarning xalqaro moliya bozorlari va investorlar uchun yanada ochiq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot sektorlari bo'yicha institutsional birliklar tasniflagichini xalqaro tavsiyalar asosida ishlab chiqish vazifasi davlat moliyasi statistikasining aniqligi va qamrovini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bu orqali davlat sektoridagi tashkilotlarni bozor va nobozor sektorlarga ajratish, ularning moliyaviy faoliyatini xalqaro standartlar asosida baholash imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida SDDS talablariga muvofiq ma'lumotlarni shakllantirish tizimini joriy qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatimizda statistik ma'lumotlarni tayyorlash, qayta ishlash va tarqatish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil 8-aprelda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "2025–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 210-son qarori esa davlat moliyasi sohasidagi islohotlarning uzoq muddatli strategik asosini belgilab berdi.



Strategiya doirasida davlat moliyaviy statistikasi hisobotlarining qamrovi va sifatini oshirish bo'yicha qator muhim vazifalar belgilandi. Xususan, davlat ulushi mavjud barcha korxonalarni sektorlarga ajratish orqali bozor va nobozor davlat korxonalari ro'yxatini shakllantirish, nobozor davlat korxonalarining hisobotlarini GFSM-2014 talablariga muvofiq aks ettirish vazifasi belgilab olindi. Bu esa davlat sektoridagi yashirin fiskal xavflarni aniqlash va baholash imkoniyatini beradi.

Davlat sektorining barcha moliyaviy aktivlari va majburiyatlarini qamrab oluvchi moliyaviy balansni har yili shakllantirish vazifasi esa mamlakat davlat moliyasi barqarorligini kompleks baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali davlat aktivlari va qarz majburiyatlarining haqiqiy holatini aniq baholash imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, davlat moliyaviy statistikasi hisobotlarini davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda tayyorlash vazifasi raqamli davlat moliyasi tizimini shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi. Bu inson omilini kamaytirish, ma'lumotlar aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat moliyasi sohasida amalga oshirilayotgan mazkur keng ko'lamli islohotlar nafaqat fiskal intizomni kuchaytirish, balki mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali "inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan ochiq, shaffof va xalqchil davlat boshqaruvi modeli shakllantirilmoqda. Bu esa mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lee Jr., Robert D. Public Budgeting Systems / Robert D. Lee Jr., Ronald Wayne Johnson, Philip G. Joyce. 8-th.edition.P..13.
2. Pollitt C., Bouckaert D. Public management reform. A comparative analysis. Oxford University Press, 2004. R. 146–155.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938 son qarori // <https://lex.uz/docs/-5193227>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3879197>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100